

ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA TRANSPOZITSIYA HODISASINING QO'LLANILISHI

Xayrullayeva Saida A'zamjonovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 4-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15405627>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi so'z turkumlarining o'zaro ko'chishi, sabablari hamda turlari va uning she'riy matnda qo'llanilish xususiyatlari Abdulla Oripov she'riyati misolida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: transpozitsiya, ko'chish, konversiya, sintaktik transpozitsiya, agglyutinativ tillar, qolip, sinxron, olamning lisoniy manzarasi, funksional transpozitsiya.

So'zlarning ma'no tovlanishi, o'zgarishi inson va tilning tadriji, til va tafakkurning aloqasi bilan bog'liqdir. Olamning lisoniy manzarasi o'zgarishi va uning qabul qilinishi bilan yangidan-yangi semalar hosil bo'ladi. So'z ma'nolarining o'zgarishi tilshunoslikda transpozitsiya atamasi bilan ataladi.

Jahon tilshunosligida so'z turkumlari orasidagi munosabatlarni birinchilardan bo'lib Balli, uning individual tomonlari esa Yespersen, Seshe, Frey yaratgan. Nurmonov A., Mahmudov N., Sayfullayeva R., Mengliyev B., Mirzayev I., Hojiyev A., Qo'ng'urov R., Eltazarov J.lar tomonidan o'zbek tilshunosligida so'z turkumlarining o'zaro munosabati, ko'chishi va transpozitsiya hodisasi o'rganilgan.

Transpozitsiya- so'z turkumining ko'chishi, ma'lum bir turkumga mansub so'zning o'ziga xos bo'lgan, atash, vazifa semasini kuchsizlantirib, boshqa so'z turkumiga xos semantik va grammatik belgiga ega bo'lishi tushuniladi. [1,183]

Demak, transpozitsiya ham til leksik sathining boyib, takomillashib borish yo'llaridan biridir. Boshqacha aytganda, hech qanday qo'shimchalarsiz so'z yasalishidir. Transpozitsiya atamasi bilan bir qatorda ko'chish, translatsiya, konversiya, derivatsiya atamaları sinonim qo'llaniladi. Shulardan transpozitsiya va translatsiya xalqaro termining o'zbekcha muqobili-ko'chish sanaladi. Konversiya esa transpozitsiyaning bir ko'rinishi bo'lib, sintaktik transpozitsiyaga to'g'ri keladi.

Transpozitsiyaning uch turi mavjud:

1.Transpozitsiya (ko'chim)- so'z turkumlarining ko'chishi. (Bunda so'z semasi o'zgaradi va boshqa turkumga xos leksik, grammatik vazifalarni bajaradi. Prof. J.Eltazarovning ko'rsatishicha, badiiy matnda o'rtacha har uch jumladan birida ko'chkin (transpozitiv) so'z qo'llash mavjud. [2, 138] Abdulla Oripovning "Yillar armoni" she'riy to'plamidan keltirilgan quyidagi misollarni ko'rib chiqsak:

N	Misol	Ko'chish tipi	Izoh
1.	Istaymanki, na'ra tortsin chaqaloqlar ham, O'liklar ham tinch yotmasin qabrlarida. (168-b)	At>N	Sifat +ot (o'lik odam) qolipidagi birliklarning otlashishi natijasida bu o'lik so'zi otga xos bo'lgan sema va grammatik kategoriyalarni qabul qilgan. Hozirda substant sifatida

			qaraladi.
2.	Seni quyosh o‘zi ko‘targay boshga, Sen ham oshiqmisan yoki, ohujon? (180-b)	At>N	Oshiq so‘zi dastlabki turkumi sifat bo‘lsa-da, birlamchi vazifasi o‘zgargan va otga xos grammatik va morfologik xususiyatlarni ko‘rsatgan.
3.	Bolam, keksalarni qadrla ko‘proq, Bog‘lab qo‘ygan emas bizni, deydilar. (183-b)	At>N	Qariya, keksa kabi sifatlar sifat +ot qolipidagi so‘z birikmalarining faol qo‘llanilishi natijasida otga xos kategorial qo‘shimchalar bilan qo‘llanila oladi. (-lar qo‘shimchasi otga xos grammatik kategoriya)
4.	Ayting, hilol buncha ma’yus boqmagay, Ayting, muncha suluv bo‘lmagay tonglar. (186-b)	At>N	Hilol – yangi oy ma’nosini anglatgan arabcha so‘z bo‘lib, o‘zlashgandan so‘ng substant sifatida qo‘llanilgan: Ko‘kka boqsa, Zuhro yulduz qolar ekan lol, Hasad qilar ekan uning qoshiga hilol. (Turob To‘la)
5.	O‘zini kir-chirdan Pok etsa jahon. (188-b)	At>N	Yuviladigan har xil kiyim, sochiq va shu kabi narsalarning umumiy nomi. kir kiyim (sifat +ot) qolipidagi qo‘llanishlardagi sifatlarning otlashishi natijasida yuzaga kelgan substant hisoblanadi.
6.	Oldinda kelajak turar alamat, Mayliga, yashasin butun yer yuzi.	At>N	-ajak, -vchi kabi kelasi zamon sifatdosh qo‘shimchasi bilan qo‘llangan o‘quvchi, to‘quvchi, yozuvchi kabi so‘zlar hozirgi kunda ot so‘z trkumiga o‘tgan va substantlar sifatida qaraladi.

Misollardan ko‘rinadiki, ko‘chish jarayoni turli til sathlarida (leksik, morfologik, sintaktik sathda) kuzatish mumkin. Masalan, sifat+ot, sifatdosh+ot, ravish+ot qolipidagi so‘z birikmalarining otlashishi natijasida yosh, keksa, qiz, er, yigit, ayol, sog‘, kelajak, o‘quv, yozuv, tanish, tanlov, kechuv, qari, yosh, bilish, kasal, sog‘, kabi yuzlab so‘zlar ot so‘z turkumiga o‘tgan va bugungi kunda ular aniqlovchi pozitsiyasida kelgandagina o‘zlari mansub bo‘lgan “eski” turkumning xususiyatlariga qaytadilar. [4,103] E’tibor bering: Bir ko‘rgan **tanish**, ikki ko‘rgan – **bilish**. Majlis davomida nuqul **tanish** chehralarni izlardim. Bunday so‘zlar tilshunoslikda substantivlar sifatida qaraladi.

2. Sintaktik transpozitsiya-bunda so‘z boshqa turkumga xos vazifani bajaradi, ammo morfologik jihatdan bu turkumga o‘zlashmaydi. [2,90-b]

Bu turdagi ko'chishda ko'chayotgan so'z o'z kategorial ma'nosini va sintaktik pozitsiyasini vaqtinchalik o'zgartiradi. Ta'kidlash kerakki, shu xususiyatlar turg'un birikmalar, maqollar va hikmatli so'zlar tarkibida ko'plab uchraydi.

N	Misol	Ko'chish tipi	Izoh
1.	Yosh burgut uchmoqda ko'kda shiddatkor, Kumush bulutlarning to'zg'itib parin.(68-b)	N>At	Kumush so'zi morfologik jihatdan ot so'z turkumi (nima? so'rog'iga javob bo'ladi), lekin matn tarkibida sifatga xos pozitsiya, ya'ni aniqlovchi vazifasini bajargan.
2.	Yorilmagan yaraday sevgi Unda bizni qiynamas to'lib. (70-b)	V>At	Fe'l so'z turkumining sifatga xos vazifa bajargan.
3.	Yoningga sog'-omon qaytib kelurman, Otash nigohingda yongali, faqat. (72-b)	N>At	Ot so'z turkumi sifatga xos vazifa bajargan.
4.	Qahrabo ko'zyosh to'kib turar faqat daraxtlar, Ne qilsin, uchay desa ularda yo'q qanotlar. (75-b)	N>At	Ot so'z turkumi sifatga xos vazifa bajargan.
5.	Bayqaro irg'ishlab istak ortida Jahonga boqqanda misli bola she'r. (193-b)	N>At	Ot so'z turkumi sifatga xos vazifa bajargan.

Transpozitsiyaning bu turi sinxron holda yuz beruvchi jarayon bo'lib, ko'rinib turganidek, yangi so'zlar hosil bo'lmaydi. (Otga xos sintaktik vazifa – ega bo'lmasdan, aniqlovchi vazifasida kelishi- **kumush bulut, qahrabo ko'z yosh**) Masalan, Arpa ekkan arpa o'rar, bug'doy ekkan bug'doy. (Fe'l otga ko'chgan. $V > N$); Maqtanganning uyiga bor, kerilganning to'yiga bor. (Fe'l otga ko'chgan. $V > N$); Aqlli o'zini ayblar, aqlsiz do'stini. (Sifat otga ko'chgan. $At > N$); Kambag'al don topmaydi, don topsa idish topmaydi. (Sifat otga ko'chgan. $At > N$); Birovga choh qazisang, o'zing tusharsan. (Son otga ko'chgan. $Num > N$); Ko'pdan quyon qochib qutulmas. (Ravishdan otga ko'chgan. $Adv > N$)[5,2]

3. Oraliq (sinkretik, gibrid) transpozitsiya – bu matn tarkibidagina ahamiyatga ega bo'lib, u bir nutq akti doirasidagina amalda bo'lishi mumkin va ularning hosilasi tilga ham o'tishga ulguradilar, transformatsiologik ahamiyat kasb etadilar.[2,86]

N	Misol	Ko'chish tipi
1.	Tanho yotar edim bo'm-bo'sh qirg'oqda, Tepamda yulduzlar chekar edi oh.(158-b)	At>Atv
2.	Yana kelding hadyaga to'lib, Kutmoqdaydik seni intizor . (162-b)	At>Atv
3.	Bunday g'amni ko'tarmak oson ,	At>Atv

	Bu ehtimol, bizlar haqdadir. (165-b)	
4.	Ko'ngil, u kunlarni eslatma menga, Qalbimni yoqmasin bu xazon fasling.(174-b)	N>At
5.	Nima ham der edim go'zalsan faqat, Ey sen, arman yurtin g'amgin onasi. (169-b)[3]	At>N

Misollardan ko'rinadiki, gibrid transpozitsiyaga uchrgan so'zlar to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, nutq tez-tez foydalaniladigan semalarga ega bo'lgan. Xulosa qilib aytganda, transpozitsiyaning bu uch turi o'rganilganda ularni tilning leksik sathiga allaqachon o'rnatish, o'rin olayotgan va vaqtinchalik (matn tarkibida) almashib qo'llanayotgan hodisa sifatida qarash mumkin.

REFERENCES

1. Sayfullayeva R. va boshqalar. Zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya. –Toshkent: O'qituvchi, 2008. – 327 b.
2. Eltazarov J.D. So'z turkumlari paradigmasidagi o'zaro aloqa hamda ko'chish hollari. – Toshkent, 2007. – 169 b.
3. Oripov Abdulla. Yillar armoni. – Toshkent, 1987. – 592 b.
4. Islamova D. Badiiy asar tilidagi transpozitiv so'zlarning funksional-semantik xususiyatlari. – Samarqand, 2022.
5. Islamova, D. Expressive means of language and transposition. *International Bulletin of Applied Science and Technology (IBAST)*, 3(5), 1231-1234.
6. https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0,5&cluster=9289754497392282419
7. Islamova, D. (2023). Hamid Olimjonning «O'zbekiston» she'rida qo'llanilgan transpozitiv so'zlarning uslubiy va funksional-semantik xususiyatlari. 2018, No. 4 (110/1), 110(77), 5-10.
8. https://scholar.google.com/scholar?cluster=7941994830465779562&hl=ru&as_sdt=2005